


SCIENCEZONE

ONLINE SCIENTIFIC
CONFERENCES

Conference

On Legal Science



No.2 (2)

2024

Oybekova Shohida Shomurod qizi

ELEKTRON TIJORAT: HUQUQIY TABIATI, TUSHUNCHASI VA
RIVOJLANISHI..... 3-6

Allanazarova Xavajon Axmedovna

DAVLAT ISHTIROKIDAGI KORXONALARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI
HAMDA ULARDAGI BOSHQARUV MASALALARI..... 7-9

Ergashev San'atjon Xolmurod o'g'li

KIBER SPORT SOHASINI TARTIBGA SOLISHNING HUQUQIY JIHATLARI.. 10-15

Isoqov Ahmadali Komiljon o'g'li

MAMLAKATIMIZDA SUD HAL QILUV QARORLARINING OCHIQLIGINI
TAMINLASH MASALALARI VA MAZKUR MUNOSABATLAR XORIJIY
DAVLATLAR TALQINIDA..... 16-21

MAMLAKATIMIZDA SUD HAL QILUV QARORLARINING OCHIQLIGINI TAMINLASH MASALALARI VA MAZKUR MUNOSABATLAR XORIJIY DAVLATLAR TALQINIDA

Isoqov Ahmadali Komiljon o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti

isoqovahmadali843@gmail.com

Annotatsiya. Mamlakatimizdagi sud tizimida sud hal qiluv qarorlarining ochiqligini taminlash zarurati va mohiyatiga oid nazariy va amaliy masalalar, mazkur masalalar bo'yicha yuridik adabyotlarda ilgari surilgan g'oyalar, taklif va mulohazalar, shuningdek xorijiy davlatlar bir qancha xorijiy davlatlar qonuchilik tajribasidan tahlil namunalari ko'rsatib o'tilgan. Tahlillar natijasida sudlar faoliyatida ularning hal qiluv qarorlarini ochiqligini taminlash zarurati va mohiyati tushunchasi ularning nisbati, mazmuni va ahamiyatiga oid nazariy tushunchalar, qonunchilikni takomillashtirishga qaratilgan takliflar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: Hal qiluv qarori, halollik, shaffoflik, ochiqlik, oshkoralik, axborot manbai, huquqiy asoslar, arxivlash, axborotlashtirish, huquqiy hujjatlar, davlat hokimiyati, huquqiy hujjatlar, sud hokimiyati, hokimiyatlar tizimi, takomillashtirish, protsessual shakl, jamoatchilik fikri, raqamlashtirish, electron baza, davlat dasturi, yopiq sud majlisi.

Hozirgi kunda fuqaro va tashkilotlarning huquq hamda qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini sud orqali himoya qilish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish hamda protsess ishtirokchilari va manfaatdor shaxslarning odil sudlovga nisbatan bo'lgan kafolatlarini yanada kuchaytirish o'zining dolzarbligini yo'qotgan emas. Ayniqsa, odil sudlov hujjati sanalmish sud hal qiluv qarorlarining qonuniyligi, asosli-ligi va adolatliligini ta'minlash maqsadida uning tushunar-li, hamma uchun ochiq va shaffofligini, bir so'z bilan aytganda, hal qiluv qarorlarining transperentligini ta'minlash muhim masalalardan bo'lib hisoblanadi.

Davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoev tashabbusi bilan ishlab chiqilgan va qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmon va ushbu Farmon bilan tasdiqlangan “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlanti-rishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar stra-tegiyasi” hamda “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublika-sini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturi”da mamlakatimizda sudlarning faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan ilg‘or ilmiy - texnika vositalari va axborot texnologiyalarini keng joriy etish maqsadida sud qarorlarining axborot-huquqiy elektron bazasini yuritish, shaxsiy hayot daxlsizligini ta‘minlagan holda va sud ishtirokchilarining roziligi bilan barcha sud qarorlarini chop etish tartibini joriy qilish (yopiq sud jarayonida ko‘rib chiqilganlaridan tashqari) kabilar nazarda tutildi Davlat dasturining 65-bandi).

Shu o‘rinda Davlat dasturida nazarda tutilgan sud qarorlarini chop etish tartibini joriy qilishning afzal-liklari haqida to‘xtaladigan bo‘lsak, mazkur tartib orqali sud faoliyatiga oid axborot olish imkoniyati yaratiladi, bu esa o‘z navbatida sud ishlarining sonini kamayishiga ham yordam beradi. Chunki sudning ish bo‘yicha hal qiluv qarori yoki hukm chiqarganligi ayni shu ish bo‘yicha sudga qilinayotgan murojaat-larning oldini oladi. Sud qarorlarini chop etish tartibining joriy qilinishi sudda ish ko‘rishning ochiq va oshkoraligi prinsipi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, sud qarorlarining asosli, qonuniy va adolatli qabul qilinishini kafolatlashga xizmat qiladi. Zero, sud hal qiluv qarori va hukmining e‘lon qilinishi sudyalarni ish yuzasidan o‘z qarorlarini aniq faktlar bilan asoslashga undaydi.

Sud faoliyatining ochiqligi, sudning ayrim toifadagi ishlar bo‘yicha qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarorlari va hukmlarining jamoatchilikka ma‘lum qilib borilishi mohiyat e‘tibori bilan demokratik huquqiy davlatning ajralmas qismi va muhim talablaridan biridir. Darhaqiqat, sud faoliyatining ochiqligi, sudning ayrim toifadagi ishlar bo‘yicha qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarorlarining jamoatchilikka ma‘lum qilib borilishi demokratik huquqiy davlatning ajralmas qismi va muhim talablaridan, desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Zero, ish ko‘rishning oshkoraligini, uning hamma uchun ochiq va shaffofligini, sud hal qiluv qarorlarining esa qonuniyligi, asosliligi va adolatliligini ta‘minlash O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 30–moddasida

mustahkamlab qo'yilgan "O'zbekiston Respublikasining barcha davlat organlari, jamoat birlashmalari va mansabdor shaxslari fuqarolarga ularning huquq va manfaatlariga daxldor bo'lgan hujjatlar, qarorlar va boshqa materiallar bilan tanishib chiqish imkoniyatini yaratib berishi lozim", degan normani kafolatlashga xizmat qiladi. Qolaversa, sud hal qiluv qarorining qonuniy, asosli va adolatli bo'lishi ko'p jihatdan sud protsesslarining ochiqligi, har qanday shaxsning sud hal qiluv qarori bilan tanishish imkoniyatiga ega bo'lishiga ko'proq bog'liqdir.

Sud hal qiluv qarorlarining shaffofligi va barcha uchun ochiq bo'lishi to'g'risida yuridik adabiyotlarda qator fikr-mulohazalar ilgari surib kelinadi. Xususan, A.A.Vorobyov, A.V.Polyakov va Yu.V.Tixonravovlarning fikricha, odil sudlovni amalga oshirishda oshkoralik prinsipi har qanday shaxslarni sir bo'lmagan har qanday ish bo'yicha nafaqat sud hal qiluv qarori, balki ish materiallari bilan tanishish imkoniyatining berilishi tushuniladi. Har qanday ish bo'yicha sud qabul qilgan hal qiluv qarorlari e'lon qilinishi lozim. Sud hal qiluv qarorlarining e'lon qilinishi bu sud hokimiyatining o'zini o'zi nazorat qilish hisoblanadi.

Sud hokimiyatiga nisbatan qo'llaniladigan oshkoralik, ochiqlik prinsiplari adolatli sud muhokamasiga bo'lgan huquqni amalga oshirishning muhim ko'rinishlaridan biri sifatida sud hokimiyatining tashkiliy-huquqiy masalalarini tartibga soluvchi bir qator xalqaro hujjatlarda o'z ifodasini topganligini qayd etish lozim.

Shu o'rinda sud hal qiluv qarorlarini jamoatchilikka ma'lum qilib borilishining bir qator ahamiyati va afzallik tomonlari mavjud. Masalan, eng muhimi ishning hal etilishidan manfaatdor bo'lgan shaxslar ishning haqiqiy holatidan xabardor bo'ladilar.

Fuqarolik sud ishlarining ochiq, oshkora ko'rilishi ishda ishtirok etuvchilarga, shuningdek sud zalida hozir bo'lgan boshqa shaxslarda ham katta taassurot qoldirib, sud jarayonining tarbiyaviy rolini ta'minlaydi. Ishlarning ochiq ko'rilishi, fuqarolarga sudyalarning ishlari bilan bevosita tanishish, ularning faoliyatini xalq nazorati ostiga olish imkonini beradi va shuning o'zi bilan fuqarolik ishlarining to'g'ri hal etilishini ta'minlaydi.

M.M.Mamasiddiqov ham o'z asarlarida oshkoralik sud ishlarini yuritishning demokratik protsessual shakllarining muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanib, odil sudlovdagi qonuniylikni amalga oshirish hamda fuqarolik protsessi ishtirokchilarining huquqlarini ro'yobga chiqarishda muhim yuridik kafolat

vazifasini bajaradi. Sudda ish ko'rishning oshkoraligi - insonlarning sud hokimiyatiga bo'lgan ishonchini mustahkam-laydi, oshkora ko'rilgan ishlarning ommaviy axborot vositalari orqali yoritilishi jamiyat tomonidan sud faoliyatining xalq nazoratiga olinishini ta'minlaydi va tarbiyaviy ahamiyatga ega. Shuningdek, mazkur tamoyil sud qarorlarining asosli, qonuniy va adolatli qabul qilinishini kafolatlaydi, deb ko'rsatadi.

K.Barnarning fikricha, ma'lumot olish imkoniyatining yaratilishi sud ishlarining sonini kamayishiga yordam beradi, chunki sudning ish bo'yicha hal qiluv qarori chiqarganligi ayni shu ish bo'yicha sudga qilinayotgan murojaatlarning oldini oladi. Sud hal qiluv qarorining e'lon qilinishi sudyalarni ish yuzasidan o'z qarorlarini aniq asoslashiga undaydi. Chunki uning tomonidan chiqarilgan hal qiluv qarorlari matbuot orqali yoki olimlar va tahlilchilar tomonidan tanqidga uchrashi mumkin.

Sudlar faoliyatidagi ochiqlik masalalari bir qator jihatlarga ega bo'lib, ulardan biri protsessual ma'noda sud faoliyatining shaffofligi hisoblanadi. Mazkur jihatlar mamlakatimiz milliy protsessual qonun hujjatlari bilan u yoki bu darajada tartibga solingan. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 203-moddasiga ko'ra, sudya yoki sud ishni mazmunan ko'rib bo'lganidan so'ng shu sud majlisining o'zidayoq darhol uzil-kesil qaror shaklida hal qiluv qarori chiqaradi. Ayrim hollarda alohida murakkab ishlar yuzasidan asoslantirilgan hal qiluv qarorini tayyorlash ko'pi bilan uch kunga kechiktirilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining "Sud hal qiluv qarori haqida"gi 1998-yil 17-apreldagi qarorining 9-bandida tushuntirish berilishicha, hal qiluv qarorining kirish va xulosa qismi e'lon qilinganidan so'ng, sud ishda ishtirok etayotgan shaxslar, shuningdek ularning vakillariga asoslantirilgan hal qiluv qarori bilan qachon tanishib chiqishlari mumkinligi haqida ma'lum qiladi. Tanishish kuni sud bayonnomasiga yozib qo'yiladi. Asoslantirilgan hal qiluv qarorining kirish va xulosa qismi ishni ko'rish tugallangan kuni e'lon qilingan hal qiluv qarorining kirish va xulosa qismiga so'zma-so'z to'g'ri kelmog'i lozim. Ishni ko'rish tugatilgan kuni hal qiluv qarorining e'lon qilingan kunidagi kabi asoslantirilgan hal qiluv qarori chiqarilgan kun deb ko'rsatiladi. Hal qiluv qarorining e'lon qilingan xulosa qismi hamda asoslantirilgan hal qiluv qarori sudya (sud tarkibi) tomonidan imzolanib, ishga qo'shiladi. Asoslantirilgan hal

qiluv qaroriga nisbatan apellyatsiya shikoyati yoki protest keltirish muddati hal qiluv qarori chiqqan kundan boshlab hisoblanadi.

Sud hal qiluv qarorlarining jamoatchilik uchun ochiqligi bo'yicha xorijiy davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, masalan, Germaniya va Fransiyada sud hal qiluv qarorlari jamoatchilik uchun ochiq bo'lib, ayrim hollarda jiddiy asoslar mavjud bo'lganida taraflarning nomlari oshkor qilinmaydi. Ayniqsa, Fransiyada oliy sud instansiyalarining va ma'muriy sudlarning qarorlarini tarqatishning samarali mexanizmlari yaratilgan va bu borada "Legifrance.gov.fr" nomli Internetdagi huquqiy axborot saytining alohida o'rni mavjud. Mazkur huquqiy axborot saytida huquqning barcha manbalaridan, shu jumladan, Fransiyaning Oliy sud instansiyalarining qarorlari bilan bemalol tanishish mumkin.

Buyuk Britaniyada ham xuddi shunga o'xshash holatlar mavjud bo'lib, qiziqarli bo'lgan sud qarorlarini ommaviy axborot vositalari orqali muntazam ravishda chop etib borish an'ana tusiga kirgan. Masalan, "London Tayms" gazetasi deyarli har kuni so'nggi vaqtlarda birmuncha qiziqarli bo'lgan sud ishlari bo'yicha qabul qilingan qarorlarning qisqacha axborotini chop etib boradi. Har chorshanba kuni nashrga chiqadigan "Lou Tayms" gazetasida esa butun bir bob qonunchilik va sud amaliyotiga bag'ishlangan. Shuningdek, lordlar Palatasining maxsus saytida (<http://www.publications.parliament.uk/pa/Id>) Birlashgan Qirollikning barcha hududidagi oliy sud instansiyalarining qarorlarini, ish muhokamasiga doir boshqa ma'lumotlarni olish mumkin. Mazkur saytda muqaddam, ya'ni 1966 yildan boshlab qabul qilingan sud qarorlari haqidagi ma'lumotlar bilan ham tanishish mumkin.[1]

Sud qarorlarining ochiqligi bo'yicha AQSh tajribasiga to'xtaladigan bo'lsak, sudlar tomonidan qabul qilingan va ro'yxatdan o'tgan barcha hujjatlar bilan aholi sud klerki ofisi orqali tanishib borish imkoniyatiga ega. Sud hal qiluv qarorlarini nafaqat elektron shaklda, balki chop etilgan shaklda ham olish imkoniyati mavjud. Xususan, AQShning barcha sudlari qarorlari shu sudlarga tegishli bo'lgan nashrlarda to'plam sifatida chop etib boriladi va mazkur nashrlar barcha yuridik kutubxonalarga joylashtirilgan.[2]

Mamlakatimizda ham sud hal qiluv qarorlarining ochiqligi va barchaga tanishish uchun qulay bo'lishini ta'minlovchi protsessual mexanizmlarni yaratish hozirgi kunda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu maqsadda, bizning fikrimizcha, birinchidan, sud amaliyotini umumlashtirish natijalari va sudlar faoliyatiga doir boshqa ma'lumotlar muntazam ravishda chop etib borilishini tashkil etish kerak.

Ikkinchidan, ayrim toifadagi ishlar bo'yicha qabul qilingan sud hal qiluv qarorlarini chop etib borish amaliyoti yo'lga qo'yilishi lozim.

Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Axbo-rot nomasida fuqarolik ishlari bo'yicha sud amaliyoti materiallari quyi sudlarning hal qiluv qarorlarida yo'l qo'yilgan kamchiliklar ko'rsatilgan holda muntazam ravishda chop etib borilmoqda. Mazkur shaklda sud hal qiluv qarorlari haqidagi ma'lumotlarning berib borilishi sudlar faoliyatida yo'l qo'yilayotgan kamchiliklarni o'z vaqtida bartaraf etish va uni oldini olishga xizmat qilib kelmoqda.

Uchinchidan, mamlakatimizda tadbirkorlarning ishi yuzasidan qabul qilingan iqtisodiy sudlar qarorlarini muntazam ravishda nashr etib borilishi amaliyotining yo'lga qo'yilganligini qo'llab-quvvatlagan holda ayrim toifadagi fuqarolik ishlari bo'yicha ham qabul qilingan sud hal qiluv qarorlarini qonunchilikda belgilangan tartibda maxsus nashrlarda yoki Oliy sudning veb-saytlarida nashr etib borish amaliyotini joriy etishni yo'lga qo'yish lozim. Shuningdek, fuqarolik ishlari bo'yicha sudlar faoliyati haqida aholini muntazam ravishda habardor qilib borishni tashkil etish maqsadida tuman (tumanlararo), shahar sudlarining internetda veb-saytlarini tashkil etish maqsadga muvofiq bo'lar edi.

REFERENCES:

1. Барнар К. Пути и способы распространения информации о судебных решениях в Великобритании / В сб.: Судебная практика как источник права. –М., 2000. –С. 71-72.
2. Власихин В. Виртуальное путешествие российского читателя по американским судам // Российская юстиция. 2001. №3. –С. 60-63.
3. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining "Sud hal qiluv qarori haqida"gi 1998-yil 17-apreldagi qarori